

**YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARING
HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMoya QILISH BORASIDA QONUNCHILIK
IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI**

Niyozmetova Dildora Ramatjon qizi

<https://orcid.org/0009-0006-9870-9836>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11107510>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining muammolari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, bolalarning huquq va manfaatlari, huquqiy mexanizm.

**PROSECUTOR'S SUPERVISION OVER THE IMPLEMENTATION OF
LEGISLATION ON THE PROTECTION OF THE RIGHTS AND INTERESTS OF
ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE**

Abstract. This article provides information on the problems of control over the implementation of legislation in the protection of the rights and interests of orphans and children deprived of parental care.

Key words: orphan, children deprived of parental care, rights and interests of children, legal mechanism.

**ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О
ЗАЩИТЕ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ
ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ**

Аннотация. В статье представлена информация о проблемах контроля за исполнением законодательства в сфере защиты прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей.

Ключевые слова: сирота, дети, лишенные родительской опеки, права и интересы детей, правовой механизм.

Mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mustahkamlanib bormoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 12-fevraldag'i "Etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ijtimoiy yetimlikni yanada kamaytirish, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning jadal ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratish, tarbiya muassasalarining ish faoliyatini yaxshilash, shuningdek, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar belgilandi. Ta'kidlash joizki, "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasining talablariga asosan bola oila g'amhurligida o'smoqligi va buni davlat tomonidan ta'minlashda ko'maklashishi lozimligi ko'rsatilgan va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasida ushbu norma o'z aksini topgan.

Chunonchi, Konstitutsiyaning 77-moddasida “davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlanadiradi” deya ta’kidlangani ham O‘zbekistonda hech bir soha, hech bir inson nazardan chetda qolmaganligidan dalolat beradi.

Shuningdek Prezidentimizning 2021-yildagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son qaroriga asosan tashkil qilingan Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari zimmasiga bir qator vazifalar yuklangan.

Markaz xodimlari o‘z oldiga ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, chin yetim, vasiylik yoki homiylik tayinlangan voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga mavjud muammolarini hal etishda bepul huquqiy maslahatlar berishni maqsad qilib qo‘ygan.

2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishida sud, huquqni muhofaza qilish organlari, jumladan, prokuratura organlari oldiga bir qator vazifalar qo‘yildi. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so‘zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining kuch va imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilishni taqazo etdi. Shu bilan bir qatorda, yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda ijtimoiy sohaning davlat siyosati darajasida ko‘riladigan yetim va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni himoya qilish, bolani oilada tarbiyalanishi uchun uning qondosh oilasini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yoki joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirish, yetim bolalar uchun oilaviy muhitda tarbiyalanish imkoniyati amalga oshirish yuzasidan Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilingan edi. Bu borada respublikadagi 16 ta mehribonlik uylari, 4 ta bolalar shaharchalari, 3 ta “SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari” va 13 ta Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi Bolalar uylari idoraviy boshqaruv asosida Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazildi.

Chunonchi, 2021-yil avgust oyigacha faoliyat ko‘rsatgan 16 ta mehribonlik uyi va 4 ta bolalar shaharchasidan 2023 yil 15 dekabr holatiga ko‘ra 14 ta mehribonlik uyi, 4 ta bolalar shaharchasi va 5 ta bolalar uyi faoliyati tugatildi. Bugungi kunda 2549 nafar o‘g‘il-qizlar oilalarda (qarindoshlar, do‘sstar, vasiylik, homiylik, patronat) tarbiyalanmoqda. Shundan 677 nafar bolalar 130 ta oilaviy bolalar uyida tarbiya olmoqda. 246 nafar bola hamon 2 ta mehribonlik uyida tarbiyalanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-yanvardagi 26-son “Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi

ta'minlanib, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni "Mehr daftari"ga kiritishning axborot tizimi amaliyotga joriy etildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda 9 mingdan ziyod bola mazkur daftarga kiritilgan. "Mehr daftari" jamg'armasi hisobidan bolalarning muammolari, orzu-istiklari hal etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda samarali davom ettirilmoqda.

REFERENCES

1. Prezidentimizning 2019-yil 12-fevraldagi "Etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Prezidentimizning 2021-yildagi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5168-son qarori.
3. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-yanvardagi 26-sodagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Mehr daftari" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori